

**PSIXODIAGNOSTIK METODLAR**

*Qo'ziyev Ulug'bek Aliqulovich*  
*Sirdaryo viloyati Mirzaobod*  
*tumani 33-maktab psixologi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqola psixodiagnostik metodlar haqida bodib, ayni damda dolzarb mavzulardan biri sanaladi. Psixologik adabiyotlarda ko'pincha-metod va -metodika tushunchalarini turli mazmunda uchratamiz. Biz psixologiyaning malum uslubiy tamoyillar o'zining birlamchi konkret tadqiqot uslubidan olinishini bilamiz. Diagnostik metodni xarakterlayotganda, uning odchash—sinash yo'nalishining ko'rsatgichi bilan chegaralanib qolish yetarli emas. Aks holda tushuntirish g'olibligi eksperiment metodga beriladi.

**Kalit so'zlar:** eksperimental, diagnostik metodika, Guruhdan tashqari, Content analiz, Sotsiometrik, Intervyu, Proyektiv

Biz yurtimizda qanday islohotlarga qo'l urmaylik, avvalo, siz kabi yoshlarga, sizlarning kuch-g'ayratingiz, azmu shijoatingizga suyanamiz. Barchangiz yaxshi bilasiz, bugun o'z oldimizga ulkan marralar qo'yganmiz. Ona Vatanimizda Uchinchi Renessans poydevorini yaratishga kirishdik. Biz oila, maktabgacha ta'lim, maktab va oliy ta'limni hamda ilmiy-madaniy dargohlarni bo'lg'usi Renessansning eng muhim bo'g'inlari deb hisoblaymiz. Shu sababli ayni ushbu sohalarda tub islohotlarni amalga oshirmoqdamiz. Ishonamanki, mamlakatimiz taraqqiyotining yangi poydevorini yaratishda sizlar singari fidoyi va vatanparvar yoshlarimiz faol ishtirok etib, munosib hissa qo'shadilar. (Sh.M.Mirziyoyev ma'ruzalaridan).


Psixologik tashhis (diagnoz)ning rivojlanishi maxsus tadqiqot uslubi — diagnostik uslubning paydo bo'lishiga olib keladi. Bu uslub psixologiyaning boshqa uslublar sistemasida qanday o'rinni egallaydi, uning o'ziga xosligi nimada?

Psixologik adabiyotlarda ko'pincha —metod va —metodika tushunchalarini turli mazmunda uchratamiz. Biz psixologiyaning ma'lum uslubiy tamoyillar o'zining birlamchi konkret tadqiqot uslubidan olinishini bilamiz.

Tadqiqot uslubining eksperimental va noeksperimental (tavsiflash) uslubga bo'linishi hamma yerda tasdiqlangan. Noeksperimental uslub metodikaning har xil turdagi kuzatish, suhbatlar, faoliyat mahsullarini o'rganishni hosil qiladi. Tadbiqiy metod (qo'llanma) yo'naltirilgan shart-sharoit yaratishga asoslangan. Bu shart-sharoitlar o'rganilayotgan omil (o'zgaruvchi)ni ajratib olishni ta'minlaydilar va uning ta'siri bilan bog'liq bo'lgan o'zgarishlarni qayd qiladi. Bundan tashqari tadqiqotchining sinalayotgan shaxsning faoliyatiga aralashish imkoniyatiga yo'l qo'yadi. Shu metod asosida psixologiya uchun ko'p sonli va odatiy laboratoriya va

tabiiy eksperiment metodikasi hamda yana ularning maxsus xilma-xil turlari — shakllangan eksperimenti (tajriba) yaratiladi.

Diagnostik testlar ayrim hollardagina eksperimental metod chegarasida qaraladi. Biz mutlaq aniq xususiyatli va ko'pgina konkret metodikalarni umumlashtiruvchi psixodiagnostik metodni ajratish kerak deb hisoblaymiz. Psixodiagnostik metodning



asosiy xususiyatidan biri uning o'lchash—sinash, baholovchi yo'nalishi hisoblanadi. Bu yo'nalish yordamida o'rganilayotgan hodisaning miqdor va sifat kvalifikatsiyasiga erishiladi.

Diagnostik metodni xarakterlayotganda, uning o'lchash—sinash yo'nalishining ko'rsatgichi bilan chegaralanib qolish yetarli emas. Aks holda tushuntirish g'olibligi eksperiment metodga beriladi. Haqiqatdan esa diagnostik tadqiqot o'ziga tushuntirish elementlari, sabablarni ochish, nihoyat talablarga mos kelgan tavsiyalarni ishlab chiqishni o'ziga kiritishi kerak.

Psixodiagnostik metod turlari. Psixodiagnostikada qo'llaniladigan ob'ektiv metodlar xilma-xil bo'lib, uning ko'proq qo'llaniladigan turlariga kuzatish, so'roq, test, eksperiment va modellashtirish sinaluvchi faoliyati mahsuldorligini o'rganishga oidlari kiradi.

Psixologiya va psixodiagnostikaning asosiy metodlari.

**Psixodiagnostik metod yo'nalishlari.** Psixodiagnostik metod uchta asosiy diagnostik yo'nalishda aniqlanadi. Bu uch yo'nalish ko'pincha ma'lum metodikalardan foydalanadi. Bu yo'nalishlar psixodiagnostikada shartli ravishda quyidagicha ifodalanadi: —ob'ektiv, —sub'ektiv va —proektiv. Diagnostikaga ob'ektiv yondashish an'anaviy ikki turdagi metodikaga bo'linadi. Bu diagnostika o'z shaxsiy xususiyatiga va intellekt testlariga ega metodikadir. Birinchi yo'nalish shaxsning nointellektual xususiyatlarini o'lchashga yo'naltirilgan, ikkinchisi esa uning intellektual rivojlanish darajasini aniqlashdir. Intellektual rivojlanishning diagnostik darajasi intellektning ko'p sonli testlaridan iboratdir (umumiy qobiliyat testlari). Shaxs metodikasini shartli

ravishda —ta'sir qilish testlari (—maqsadli shaxsiy testlar) va —vaziyatli testlarga bo'lish mumkin. Maqsadli shaxsiy testlar ko'proq tarqalgan — bu har xil persektiv testlar, masalan, niqoblangan figuralarni topish. Vaziyatli testlarda sinaluvchi hayotda sodir bo'ladigan o'xshash vaziyatga joylanadi. Nihoyat ob'ektiv yo'nalishda yana ikkita asosiy test guruhlarini paydo bo'ladi:

1. Alohida qobiliyat testlari (intellektning ayrim tomonlarini rivojlantirish darajasini o'lchash).

2. Muvaffaqiyatga erishilgan testlar.

Ular shaxsning ilmiy qobiliyatining darajasini ko'rsatadi. Sub'ektiv yo'nalish ko'p sonli savollardan iborat. Bu keng tarqalgan diagnostik qo'llanmalar shaxsiy, holat va kayfiyat, shuningdek mulohaza va savol anketalariga bo'linadi.

Har bir yo'nalishning ichidan bir-biriga o'xshash, yaqin metodikalarni ajratish mumkin. Har xil diagnostik yo'nalishlar orasida o'tib bo'lmas chegaralar yo'q va bo'lishi mumkin emas. Klassifikatsiyamizning maqsadi ro'yxatni to'ldirish emas, balki hozirgi paytda eng muhim va dolzarb bo'lgan oddiy va qonuniy chizmani topishdir.

**Psixodiagnostik metodlarning umumiy chizmasi.** Psixodiagnostikaning barcha metodlari psixologiyaning turli sohalarida xususan, kishi faoliyatining turli doiralarida qo'llaniladi. Ilmiy psixologiyada ular tadqiqot metodlarini o'tkazish va tashkillashtirish jarayonida qo'llanilsa, amaliy psixologiyada esa psixologik maslahatda, psixokorreksion ishlarda, professional tayyorgarlik sohalarida foydalaniladi.


To'g'ri tashkillashtirilgan tadqiqotda doim sinaluvchilarning u yoki bu psixologik xususiyatlarining rivojlanish bosqichlarini tadqiqotdan oldin va keyin aniq baholashlari zarur. Bu shuning uchun zarurki, olib borilgan tadqiqot ushbu xususiyatlarning o'zgarishiga qanchalik ta'sir o'tkazganligini aniqlab beradi. Bunday jarayon hatto psixologik maslahatda, psixokorreksiyaga ham daxldordir. Maslahatni olib borayotganda amaliy psixolog o'z mijozining psixologik xususiyatlarini shakllanganlik holatini baholay olishi kerak. Bu xuddi shifokorning oldiga kelgan bemorga tashxis qo'yish va uning davolash muolajalarini aniqlashga o'xshashdir.

So'nggi yillarda ko'pgina mutaxassisliklar psixologiyaga va inson xulqatvoriga bir qator talablar qo'ymoqda. Shu bilan birga kishining professional layoqatini belgilovchi har xil psixologik sifatlarning aniq diagnostikasi talab etiladi. Mazkur sharoitda psixodiagnostik metodlardan foydalanish kishilarning professional tayyorgarlik va tanlash jarayonlari bilan uzviy bog'liqdir.

**Xulosa:** Dunyoda psixodiagnostik metodlarning mingdan ortiq turlari mavjud bo'lib, ulardan samarali foydalanish uchun mutaxassis malakali bilim va ko'nikmaga ega bo'lishi kerak. Ba'zan esa umumiy metodlar chizmasini o'zlashtirib olish ham maliy faoliyatda yo'nalish sifatida yaxshi samara berishi mumkin. Masalan, bunda psixodiagnostik metodlarning umumiy chizmasini taklif qilish mumkin bo'lsa, u

quyidagi ko`rinishga ega bo`ladi:

1. Kuzatishga asoslangan psixodiagnostik metodlar.
2. So`rovnomali psixodiagnostik metodlar.
3. Ob`ektiv psixodiagnostik metodlar (mehnat faoliyati mahsullari va xulq-atvorni tahlil qiluvchi).
4. Psixodiagnostikaning tajribaviy (eksperimental) metodlari.



Tajribaning psixodiagnostik metod sifatidagi ahamiyati sinaluvchilarning biror-bir psixologik xususiyatlarini baholash borasida maxsus psixodiagnostik tajriba o`tkaziladi. Ushbu tajriba jarayoni o`rganilayotgan sifatni yorqinroq namoyon bo`lishi uchun sun`iy vaziyatlar yaratilishida ifodalanadi. Natijada psixodiagnostik tajribaning tashkillashtirishda va o`tkazilishida tadqiqotchi o`zining qiziqtirgan ma`lumotlarini maxsus tashkillashtirilgan holdagi kuzatish orqali tajribaviy vaziyatlarda qo`lga kiritadi.

#### ADABIYOTLAR:

1. Ergasheva M.R. —Kostyum kompozitsiyasi va tarixil. Darslik.Buxoro, Durdon. 2021 y.
2. ЗОЛОТОШВЕЙНЫЙ КОСТЮМ-ИСТОРИЯ И СОВРЕМЕННОСТЬ З.Н. Турсунова, Г.Ж Ражабова - Всероссийская научно-практическая конференция, 2020.
3. Турсунова З.Н. Изучение и выявление особенностей конструкции мужского пиджака с целью её совершенствования. Научно-технический журнал БухИТИ, "Развитие науки и технологий" .№3/2018.- с 156.
4. Innavatsion ta'lim texnologiyalari / Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M., To'rayeva A.B. —Т.: "Sano standart" nashriyoti, 2015. —В. 81.
5. Савелева М.Г. Педагогические кейсы: конструирование и использование в процессе обучения и оценки компетенций студентов/Учеб. - мет. Пособие. - Ижевск: ФГБОУВПО "Удмуртский университет", 2013. - С. 9.

6. Сборник кейсов для вузов по дисциплинам гуманитарного и социально экономического цикла / Учеб. - мет. Пособие. - СПб.: Изд. Санкт-Петербургского университета управления и экономики, 2015. - С. 3.
7. Tolip ov O', Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tadbiiy asoslari — T.: 2006. —B. 260.
8. Saidova Kh.Kh., DjalolovaD.F., Ergasheva M.R. Promotion of practical trainings for the development of the creative abilities of students in special subjects using foreign methods of foreign education method / European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Европа, Vol. 8 No. 11, 2020. — PP. 73—79. [www.idpublications.org](http://www.idpublications.org).
9. SaidovaKh.Kh., KuliyevaD.R., DjalolovaD.F. “Cluster” Theory and Its Peculiarities in Increasing the Competitiveness of the Economy/ The American Journal of Interdisciplinary Innovations and Research USA, Volume 2, Issue 9, 2020. —PP. 51— 54. [www.usajournalshub.com](http://www.usajournalshub.com)
10. <https://yuz.uz/news/prezident-yoshlarga-ajdodlardan-ibrat-olib-hayotda-mojizalar-yaratishga-astoydil-intilishingiz-kerak>